

QORAQALPOQ ADABIYOTIDA EPIK AN'ANALARNING O'RGANILISH TARIXI VA TRANSFORMATSIIYA BOSQICHLARI

Pirnazarova Dilfuza Adilbaevna,

Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

pirnazarovadilfuza847@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpoq adabiyotshunosligi va folklorshunosligida epik an'analarning o'rganilish tarixi, transformatsiya bosqichlari hamda uning yozma adabiyot bilan o'zaro aloqalari tahlil qilingan. Tadqiqotda qoraqalpoq dostonchilik va jirovchilik maktablarining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, "No'g'oy davri" epik ijodi hamda Berdaq g'oyalarining milliy tarixiy xotirani saqlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, XX asr o'rtalaridan boshlab bugungi kunga qadar amalga oshirilgan fundamental ilmiy izlanishlar davrlashtirilib, epik motivlarning hozirgi zamon nasri, she'riyati va dramaturgiyasiga singish qonuniyatlari qiyosiy-tarixiy metodlar yordamida baholangan. Maqola yakunida epik an'ananing milliy identlikni saqlash va zamonaviy adabiy-falsafiy sintezni shakllantirishdagi konseptual ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Qoraqalpoq adabiyoti, epik an'ana, folklor, jirovchilik maktabi, doston, tarixiy xotira, Berdaq, transformatsiya, adabiy sintez.

Аннотация. В данной статье осуществлен системный анализ истории изучения, этапов трансформации и взаимосвязи эпических традиций с письменной литературой в каракалпакском литературоведении и фольклористике. В исследовании освещаются уникальные особенности каракалпакских сказительских школ и институтов жирау, в частности, роль эпического творчества «Ногайлинского периода» и наследия Бердаха в сохранении национальной исторической памяти. В работе периодизируются фундаментальные научные изыскания, проведенные с середины XX века по настоящее время, а также с помощью сравнительно-исторических методов оцениваются закономерности интеграции эпических мотивов в современную прозу, поэзию и драматургию. В заключении статьи обосновано концептуальное значение эпической традиции в сохранении национальной идентичности и формировании современного литературно-философского синтеза.

Ключевые слова: Каракалпакская литература, эпическая традиция, фольклор, школа жирау, дестан, историческая память, Бердах, трансформация, литературный синтез.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the history of study, transformation stages, and the interrelation of epic traditions with written literature in Karakalpak literary criticism and folklore studies. The research highlights the unique features of Karakalpak storytelling and "zhirau" schools, specifically focusing on the role of the "Nogayly period" epic heritage and Berdakh's works in preserving national historical memory. The fundamental academic research conducted from the mid-20th century to the present day is periodized, and the patterns of integrating epic motifs into contemporary prose, poetry, and drama are evaluated using comparative-historical methods. The paper concludes by demonstrating the conceptual significance of the epic tradition in maintaining national identity and shaping a modern literary-philosophical synthesis.

Keywords: Karakalpak literature, epic tradition, folklore, zhirau school, dastan, historical memory, Berdakh, transformation, literary synthesis.

Kirish. Epik an'ana – xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarash konsepsiyalari, qahramonlik ideallari hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini jirov-baxshichilik maktablari orqali avloddan-avlodga transformatsiya qiluvchi barqaror tizim hisoblanadi. Mazkur an'ana o'tmish voqealarini retrospektiv bayon etish bilan birga millatning etnik o'zligini saqlovchi va uning ma'naviy borligini oydinlashtiruvchi asosiy omildir. Qoraqalpoq

folklorshunosligida epik meros xalqning ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan dialektik aloqada rivojlangan konseptual bilimlar yig'indisi sifatida xarakterlanadi.

Turk dunyosining epik merosini fundamental tadqiq etgan akademik V. M. Jirmunskiy bu fenomenning tabiatiga baho berar ekan, epik ijod shunchaki badiiy fantaziya mahsuli emas, balki xalqning o'z o'tmishi haqidagi tasavvurlarining ob'ektiv ko'rinishi ekanini va botirlar obrazi orqali butun bir davr ideologiyasini o'z bag'riga singdirishini ta'kidlaydi [1]. Demak, epik an'ana – bu qahramonlik dostonlarini genetik xotira asosida qayta ishlab chiqish, ijro etish va interpretatsiya qilish orqali etnik ruhni jonli saqlash jarayonidir. Bu jarayon qoraqalpoq jirovchilik maktabining unikal tipologik xususiyatlari bilan mustahkamlangan.

Ma'lumki, epik an'ananing poetik strukturasi arxaik mifologik tasavvurlar bilan keyingi tarixiy reallikning organik sintezidan iborat bo'lib, u tilning eng boy leksik qatlamlarini konseptual darajada saqlaydi [2]. Shuning uchun ham epik an'ananing vokal va instrumental formada saqlanishi – millatning ona tilini, uning obrazli oylash tizimini va madaniy kodini kelajak avlodlarga bezarar yetkazib berishning fundamental kafolati sifatida ko'riladi.

Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashganda, epik an'ana — xalqning ko'p asrlik badiiy tajribasi, ruhiy qadriyatlari hamda estetik ideallarining jamlanib, davrlar davomida uzluksiz rivojlanib keladigan barqaror tizimidir. U nafaqat syujetlar to'plami, balki muayyan bir xalqning milliy mentalitetini, dunyo tanimini va tarixiy yodini badiiy formada saqlash hamda kelajak avlodga yetkazish mexanizmi hisoblanadi. Epik an'ana adabiy jarayonning evolyutsiyasida asosiy poydevor vazifasini bajarib, xalqning jamoatlik ongini badiiy detallar orqali mustahkamlaydi. U o'z ichiga barqaror epik formulalarni, tiplashtirilgan obrazlar tizimini va janr strukturalarini qamrab oladi. Tadqiqotchi E. M. Meletinskiy ta'kidlaganidek, epik an'ana tarixiy xotiraning ramziy formasi bo'lib, u yangi yozma adabiyotning shakllanishida syujetlik va stilistik asos vazifasini o'taydi [3]. Demak, qoraqalpoq adabiyotidagi epik an'ana — xalqning etnik tarixi bilan birga shakllangan, uning ozodlik intilishlari va ruhiy izlanishlarini aks ettiruvchi asosiy badiiy-estetik kategoriya sifatida tadqiq etilishi lozim.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda qoraqalpoq adabiyotshunosligi va folklorshunosligida epik an'analarning o'rganilish dinamikasini aniqlash maqsadida tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy, tipologik hamda xronologik metodlardan foydalanildi. Xalq og'zaki ijodi namunalarining tarixiy manba sifatidagi qimmatini belgilashda tarixiy-manbashunoslik va badiiy matnni germenevtik interpretatsiya qilish usullari qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini adabiy jarayonda an'ana va novatorlik mutanosibligi, epik xotiraning yozma adabiyotga transformatsiyasi borasidagi nazariy konsepsiyalar tashkil etadi. Shuningdek, tarixiy manbashunoslik ilmida badiiy asarlarning ahamiyatli ekanligini va ularni ustuvor yo'nalish sifatida o'rganish zarurligini asoslagan metodologik ko'rsatmalarga tayanildi [4]. Mazkur yondashuv xalq she'riyati va epik dostonlarini

shunchaki estetik fenomen emas, balki o'tmish voqeligini muayyan ijtimoiy-psixologik prizma orqali aks ettiruvchi o'ziga xos ma'lumotlar bazasi sifatida klassifikatsiyalashga yo'l ochadi.

Natijalar. Qoraqalpoq xalqining poetik merosi o'zining mazmuniy ko'lami va badiiylik darajasi jihatidan g'oyatda boy bo'lib, unda millat nesting eng ahamiyatli qatlamlari va tarixiy voqealarning realistlik aksi o'z ko'rinishini topgan. Folklorshunos olimlar, ayniqsa tarixchilar ushbu poetik xotiralardagi tarixiy konsepsiyalarni o'rganmay turib, xalq o'tmishining ko'p sonli dolzarb masalalarini chuqur tadqiq etishi imkonsizdir. Zero, folklorlik va adabiy asarlar – bu cheklangan badiiy san'at durlari emas, balki xalqning o'z tarixiga bergan ishonchli bahosi va ruhiy-ijtimoiy ko'zqarashidir.

Mintaqa tarixnavisligida badiiy she'riy merosning tarixiy manba sifatidagi o'rni uzoq vaqt davomida yetarli darajada tizimli baholanmay keldi. Zamonaviy ilmiy paradigmadagi transformatsiyalar davrida esa ushbu masala birinchi galdagi dolzarb muammo sifatida o'rta chiqmoqda. Badiiy-adabiy asarlarni izchil o'rganish orqali biz o'tgan davrlardagi voqealarga xalqning o'zi qanday munosabatda bo'lgani haqidagi fundamental savolga javob topamiz.

Qoraqalpoq xalqi Orol-Kaspiy va Markaziy Osiyo hududidagi eng qadimiy etnik qatlamlardan biri sifatida ko'p asrlik boy moddiy va madaniy meros egasidir. O'rta asrlar davrida Xorazm vohasida dunyo miqyosidagi ilm-fanning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniy kabi ulug' ensiklopedist olimlar yetishib chiqdi. Ularning intellektual salohiyati mintaqa madaniyatini jahon darajasiga ko'targan bo'lsa, xalqning ruhiy g'azinasi keyingi asrlarda Jiyan jirov, Kunxoja, Ajiniyoz, Berdaq, O'tesh va Omar kabi klassik shoirlarning asarlarida, folklorlik durdonalarda o'zining yuksak ko'rinishini topgan. Ming yillik tarixga ega epik dostonlar, maqol-matallar va xalq qo'shiqlari millatning ma'naviy dunyosini o'rganishda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Qoraqalpoq xalqining etnik tarixi va folklorining boyligi o'tgan asrlardagi sayohatchilar va tadqiqotchilarning ham e'tiborini tortgan. Chunonchi, taniqli olim Cho'qon Valixonov qoraqalpoqlar orasida tarixiy jirlarning alohida ko'p saqlanganligini ilmiy asosda tasdiqlagan. Olim o'z asarlarida xalq orasida keng tarqalgan metaforik bir rivoyatni keltirib, unda qo'shiq va jir san'atining dunyo bo'ylab sayohat etib, Sirdaryo bo'yidagi qoraqalpoq qo'nimlariga mehmon bo'lib to'xtaganini badiiy tilda bayon etadi [5]. Valixonovning yozishicha, bu ruhiy mehmonning kelishi haqidagi xabar tez orada butun hududga yoyilib, son-sanoqsiz xalq toparlari bir yerga jamlangan. Ular tong otguncha xush ovozli qo'shiqlar, tarixiy gurunglar va epik jirlarni katta qiziqish bilan tinglab, yodda mustahkam saqlab qolgan. Bu holat qoraqalpoq xalqining nafaqat estetik didini, balki tarixiy ma'lumotlarni og'zaki tilda saqlash va avlodan-avlodga transformatsiya qilish qobiliyatini ilmiy jihatdan dalillaydi.

Akademik tadqiqotlarning shakllanish tarixiga nazar tashlasak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xalq og‘zaki ijodini to‘plagan mutaxassislarining xizmati alohida ko‘zga tashlanadi. Masalan, A. I. Belyayev qoraqalpoq xalq she‘riyati va epik asarlarini ilmiy nuqtai nazardan yuqori baholab, qadimgi rus yilnomalaridagi "chyornie klobuki" (qoraqalpoqlar) o‘tmishini o‘rganishda ushbu xalq yodida saqlanib qolgan afsona va dostonlarning o‘rni beqiyos ekanini yozadi [6]. Muallif o‘z qaydlarida xalq jirovlaridan Botiyxon va uning harbiy yurishlari haqidagi tarixiy jirlarni eshitganini ma‘lum qiladi, biroq o‘sha davrdagi sub‘ektiv sabablarga ko‘ra ularning qog‘ozga muhrlanmay qolganini afsus bilan tilga oladi. Shuningdek, u qoraqalpoq xalqining siyosiy tarixi va ozodlik kurashlari Xiva xonligi tarixiy qo‘lyozmalarida juga keng ko‘lamda aks etganini, xususan, qoraqalpoq biylarining xonlik zulmiga qarshi kurashlariga doir qimmatli xronikalar mavjudligini ko‘rsatadi [7].

Qoraqalpoq epik an‘anasining o‘zagini nafaqat klassik dostonlar, balki xalqning siyosiy tarixida o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslar — Ormanbet biy, Baraq botir, Tavke xon hamda Maman biy kabi siymolar haqidagi turkum afsonalar tashkil etadi. Bu folklorlik materiallarning ilmiy ahamiyati shundaki, ularda xalq tarixiy voqealarga o‘zining etik bahosini beradi.

Xalq daho san‘atkori Berdaq G‘arg‘abay o‘g‘lining merosini to‘plash va tizimlashtirishda S. Mavlenov, Sh. Xojaniyazov, Q. Ayimbetov, O. Kojurov kabi fidoyilar bilan bir qatorda N. Davqarayev va I. Sagitovlarning xizmati ulkan bo‘ldi. Berdaqshunoslik ilmida I. Sagitovning fundamental monopoliyalarida shoirning badiiy mahorati bilan birga uning tarixiy mavzudagi asarlariga chuqur tahlil berilgan [8]. Akademik M. K. Nurmuhamedovning tadqiqotlari esa adabiyot tarixining xronologik (chegaralari)ni aniqlashda dastlabki dadil qadamlardan edi [9]. Shuningdek, A. Murtazayev hamda B. Qurbonboyevning mehnatlari qoraqalpoq klassik adabiyotining mintaqaviy madaniy aloqalarini ochib berishda katta ahamiyat kasb etdi. Professor A. Paxratdinov esa shoirning shajaraviy va dostonlik asarlarini yangicha qarashlar asosida tahlil qilib, ularning millat tarixini o‘rganishdagi maqomini belgiladi [10].

Berdag asarlarining epik an‘ana doirasidagi qimmatini tadqiq etishda professor M. Tilevmuratovning izlanishlari konseptual ahamiyatga ega. Olim bir qator mehnatlarida milliy adabiyotning shakllanish tarixiga yangicha yondashib, uning genetik manbalariga ilmiy tahlil bergan edi. U shoirning “Shejire”, “Xorazm”, “Aydos biy”, “Yernazar biy” kabi asarlarini xalqning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixini real aks ettiruvchi, boshqa yozma manbalarda saqlanib qolmagan ko‘plab faktlarni o‘zida jamlagan bebaho hujjat sifatida tahlil qiladi. Bugungi kunda ham ushbu epik an‘analarning zamonaviy adabiyotdagi o‘rni G. Toqimbetova va A. Utambetovalarning tadqiqotlarida chuqur muhokama etilib, epik xotiraning individual mualliflik stili bilan sintezlashishi ochib berilmoqda [11].

Muhokama. Qoraqalpoq adabiyotining genezisi, uning shakllanish davrlari va epik ildizlarini ilmiy asoslash masalasi XX asrning ikkinchi yarmida yetakchi olimlar tomonidan keng muhokama qilindi. Urushdan keyingi davr, aniqrog‘i, XX asrning 50-60-yillari qoraqalpoq adabiyotshunosligi va folklorshunosligida epik an‘analarni fundamental tadqiq etishning yangi bosqichi bo‘ldi. 1959-yilda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Qoraqalpoqiston filialining ochilishi hamda uning tarkibida N. Davqarayev nomidagi Tarix, til va adabiyot institutining tashkil etilishi tadqiqotlarining uzluksizligini ta‘minladi.

N. Davqarayev o‘z tadqiqotlarida yozma adabiyotning shakllanish jarayonida folklorlik epik ibtidoning tutgan o‘rnini tarixiy-xronologik jihatdan asoslab berdi. Olim “Qiriq qiz”, “Alpamis”, “Qoblan”, “Maspasha” kabi dostonlarni tahlil qila turib, ularda fantastik elementlardan ko‘ra real turmush ko‘rinishlarining ustunligini ta‘kidlaydi. Professor I. T. Sagitov esa qahramonlik dostonlarining jahon epik estetikasi bilan aloqasini o‘rganib, dostonlar orqali tarixiy xronologiyani aniqlash masalasini o‘rtaga qo‘ydi. Masalan, u taniqli xalq jirovi Yerpolat jirovning ma‘lumotlariga tayanib, Edige yashagan davrdan 1934-yilgacha 558 yil o‘tganligi haqidagi hisobni keltirgan, bu esa Edigeni XIV asr oxiri – XV asr boshida yashagan tarixiy shaxs ekanini tasdiqlovchi real yozma manbalar bilan to‘la mos keladi. I.Sagitovning fikricha, yozma manbalar saqlanmagan sharoitda, rivojlangan yozma tarixga ega bo‘lmagan xalqlar uchun dostonlar etnogenezni va urug‘-aymoqchilik munosabatlarini o‘rganishdagi yagona ishonchli vositadir.

Ushbu davrda folklor va professional san‘atning o‘zaro aloqasini o‘rganishga T.Allanazarov ham munosib hissa qo‘shdi. U N. Davqarayevning folklorlik motivlarni professional dramaturgiya darajasiga ko‘targan novatorlik rolini ochib berdi. Shuningdek, Q.Maqsatovning izlanishlarida epik an‘ananing badiiy tizimi, tasvir vositalari va jirovchilik maktabining o‘ziga xosliklari poetik va estetik jihatdan chuqur tahlil qilingan bo‘lsa, Q. Ayimbetov epik yodgorliklarni xalqning ruhiy dunyosi, etnografiyasi va falsafiy ko‘zqarashlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganishning metodologik namunasini ko‘rsatdi.

1960-yillar oxiri va 1970-yillar boshida matbuot yuzini ko‘rgan maqolalar adabiyot tarixini davrlashtirishda yangi paradigmani shakllantirdi. I. Sagitov adabiyot tarixining ildizlari qadimgi davrlarga borib taqalishini ilmiy isbotlagan bo‘lsa, Q. Maqsatovning “Soppasli sipira jirov” maqolasi jirovchilik maktabining adabiyotdagi o‘rnini ko‘rsatishda katta burilish yasadi. Professor K. Mambetov esa o‘zining fundamental maqolalarida qoraqalpoq adabiyotining umumturkiy yozma meros bilan aloqalarini ochib berdi va qoraqalpoq eposining eng gullagan davri sifatida "No‘g‘oy davri" chegaralarini belgiladi. M. Tilevmuratov ham milliy adabiyotning dastlabki manbalarini qadimgi turkiy tilli xalqlarning osongina o‘rtaq merosiga borib taqalishini asoslab, uni xronologik tizimga soldi.

S.Bahodirovaning tadqiqotlarida esa qoraqalpoq prozasining shakllanishida improvizatorlik va jirovchilik an‘analarining roli genetik aloqada o‘rganildi. Muallif xalq dostonlaridagi bayon tizimining yozma adabiyotga o‘tishini “badiiy xotira” tushunchasi

bilan bog'laydi va dastlabki nasriy asarlarda qofiyali proza hamda epik klishelarning saqlanib qolganini tushuntiradi. Olim X. Hamidov esa klassik she'riyat genezisini doston va shajaralar bilan bog'lab, adabiyotdagi "epik stil" shunchaki syujetlarni takrorlash emas, balki milliy dunyoqarashning yozma badiiy formaga transformatsiyalanishi ekanini ko'rsatdi.

1970-yillardan boshlab epik an'analarning yozma adabiyot bilan o'zaro ta'siri metodologik jihatdan tizimlashtirildi. J.Narimbetov, Q. Maqsetov va A. Qojraboyevlarning asarlari nasrda epik an'analarning o'rnini belgilashda poydevor bo'ldi. Q. Sultonov va Q.Kamolov prozada og'zaki an'analarning badiiy funksiyasini aniqladi. 1980-yillarda M.Nurmuhamedov turkiy tilli adabiyotlardagi og'zaki va yozma an'analarning sintezi konsepsiyasini ilgari surgan bo'lsa, S. Bahodirova qoraqalpoq nasridagi folklorizm masalalarini monografik darajada tahlil qildi.

1990-yillardan boshlab epik an'analarning tarixiy xotira muammosi doirasida o'rganila boshlandi. P. Nurjanov epik xotiraning badiiy asardagi ko'rinishlarini tadqiq etdi, K.Allambergenov esa folklor muammolarini yangicha mezonlar asosida baholadi. H.O'temuratova tarixiy roman poetikasidagi folklorlik asoslarni ochib berdi. 2000-yillar boshida Q. Bayniyazov xalq shoirlari ijodidagi an'analarning sintezini o'rgandi. Keyinroq A.Sultonov poetik an'analarning sabaqdoshligini, B. Polvonov esa esse janrining shakllanishini epik asoslar bilan bog'liqlikda tadqiq etdi.

So'nggi o'n yillikda epik an'analarning o'rganilishi zamonaviy ilmiy sintez va mahorat masalalariga yo'naltirildi. A.Allambergenov tarixiy romanlardagi badiiy haqiqat sintezini, Z. Bekbergenova va A.Utambetova she'riyat va dostonlardagi folklorlik usullarni o'rgandi. T.Kervenon XIX asr she'riyatidagi mifologik qatlamlarni ochdi. G.Begmuratovning tadqiqotlari esa epik syujetlarning zamonaviy romanchilikdagi individual uslub bilan birlashishini dalilladi.

Xususan, Q.Bayniyazov Abbos Dabilov ijodida epik qahramon obrazini yaratish usullarini hamda S.Majitovning urush davri asarlarida maydon qahramonlarini Alpamis va Qoblandek epik siymolar bilan qiyoslab tasvirlashini an'anaviy motivlarning yangi mazmun bilan boyitilishi sifatida baholadi. H. O'temuratova esa o'z monografiyasida tarixiy romanchilikning shakllanishini bevosita qahramonlik dostonlari va shajaralar bilan bog'lab, T. Qayipbergenov, J. Aymurzayev kabi yozuvchilar ijodida xalq eposining estetik poydevor bo'lganini ko'rsatdi.

Zamonaviy tendensiyalarni o'rganishda Q. Turdibayevning izlanishlari alohida o'rin tutadi. U I. Yusupov, T. Mambetnazarov, M. Jumanazarova dostonlari misolida epik qahramon konsepsiyasining yangicha talqinini va uning liri-epik darajaga ko'tarilganini ilmiy asosladi. Z. Bekbergenovanyang monografiyasida esa T. Jumamuratov, I. Yusupov kabi taniqli shoirlar ijodi asosida xalqona jir-to'lg'ovlarning yozma adabiyotdagi transformatsiyasi va milliy estetik idealning saqlanishi janrlar evolyutsiyasi kontekstida tahlil etilgan. Shuningdek, Z. Bekbergenova va M. Mambetova yozuvchi

K.Mambetovning “Bozatov” va “Posqan el” roman-epopeyalaridagi badiiy strukturani tahlil qilib, milliy qahramon konsepsiyasining folklorlik motivlar bilan sabaqdoshligini ko‘rsatishdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida P. Nurjanov prozadagi epik motivlarning ijtimoiy funksiyasini aniqlab berdi. U T. Qayipbergenovning “Qoraqalpoq dostoni” trilogiyasi, K.Mambetovning “Posqan el” epopeyasi misolida xalq dostonlariga xos syujet ko‘lamining hozirgi zamon roman strukturasi singish qonuniyatlarini asosladi. 2010-yillardan boshlab esa M. Xalmuratova epik janrlar evolyutsiyasini tarixiy-poetik jihatdan tadqiq etdi. G. Begmuratova esa T. Qayipbergenov, Sh. Seytov kabi yozuvchilar asarlarida folklorizmlar tipologiyasini o‘rganib, epik va mifologik obrazlar stilizatsiyasi milliy xarakterni ta‘minlovchi asosiy omil ekanini ko‘rsatdi. Shuningdek, A. Utambetova Berdaqning “Shejire” dostonidagi folklorlik va realistlik tasvir usullarining qo‘llanish mahoratini keng muhokama qildi. So‘nggi yillarda G. Toqimbetova Berdaq ijodidagi epik motivlarning shoir badiiy individualligi bilan aloqasini aniqlagan bo‘lsa, Sh. Smamutova mustaqillik davri qoraqalpoq lirikasida jirovlar she‘riyati an‘analarning stilizatsiyalanishi va tipologik aloqalarini tadqiq etdi. Dramaturgiya sohasida esa J. Qoblanov epik jirlarni sahna tiliga moslashtirishning murakkabligini “Qiriq qiz”, “Aqmaq patsha” pyesalari misolida mualliflik mahorati va novatorlik nuqtai nazaridan ilmiy asoslab berdi.

Xulosa. Qoraqalpoq adabiyotshunosligi va folklorshunosligida epik an‘analarni izchil tadqiq etish — o‘tmishni o‘rganish bilan bir qatorda millatning tarixiy xotirasi, etnik borligi va ruhiy qadriyatlarini qayta tiklovchi fundamental yo‘ldir. XX asr o‘rtalarida N.Davqarayev, Q. Ayimbetov, I. Sagitov, M. Nurmuhamedov va Q. Maqsetov kabi ulug‘ olimlar asos solgan ilmiy yo‘nalish xalq dostonlarining yozma adabiyot uchun mustahkam badiiy poydevor ekanini to‘la isbotladi. Ayniqsa, jirovchilik maktabining betakror tabiati, Nog‘ayli davri she‘riyati va Berdaq asarlaridagi tarixiy-epik konsepsiyalar milliy adabiyotni keng turkiy dunyoning ajralmas qismi sifatida namoyon etdi.

Bugungi kunning ilmiy paradigmasi epik an‘analarga yangicha talqinlar bermoqda. Endilikdagi tadqiqotlar shunchaki syujetlar takrorini aniqlash bilan cheklanmay, janrlar sintezi va mualliflik uslubining nozik qatlamlariga chuqur kirib bermoqda. P. Nurjanov, H.O‘temuratova, Q. Bayniyazov kabi olimlarning, shuningdek, so‘nggi yillardagi yosh tadqiqotchilarning mehnatlari epik motivlarning hozirgi roman, lirika va drama tarkibiga qanday singib ketganini yuksak mahorat bilan ko‘rsatib berdi. G. Begmuratova va Sh. Smamutovanning izlanishlari esa folklorlik elementlarning bugungi adabiyotda milliy xarakterni shakllantiruvchi eng asosiy jonli omil ekanini ishonchli tarzda ochdi. Shunday qilib, qoraqalpoq adabiyotidagi epik an‘analarning o‘rganilish yo‘li — klassik folklor namunalari boshlab, bugungi kunning adabiy-falsafiy sintezigacha bo‘lgan ulkan va mazmunli evolyutsiyani qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жирмунский, В. М. Тюркский героический эпос. — Л.: Наука, 1974. — С. 14.
2. Стеблева, И. В. Поэтика древнетюркской литературы: ее истоки и развитие. — М.: Наука, 1976. — С. 82.
3. Мелетинский, Е. М. Введение в историческую поэтику эпоса и романа. — М.: Наука, 1986. — С. 164.
4. Ковальченко, И. Д. Актуальные вопросы развития отечественной историографии // Новая и новейшая история. — 1993. — № 3. — С. 3.
5. Валиханов, Ч. Собрание сочинений. Том 1. — Алматы: Главная редакция КСЭ, 1984. — С. 280.
6. Беляев, А. И. Сказания об Едиге и Тохтамыше, Каракалпакская народная поэма // Протоколы заседаний и сообщения членов Закаспийского кружка любителей археологии и истории востока. Выпуск 3-4. — С. 14-16.
7. Беляев, А. И. Сказания об Едиге и Тохтамыше, Каракалпакская народная поэма // Протоколы заседаний и сообщения членов Закаспийского кружка любителей археологии и истории востока. Выпуск 3-4. — С. 15.
8. Сағитов, И. Бердақтың творчествосы. — Нөкис: Қарақалпақстан, 1958.
9. Нурмухамедов, М. К. Судьба народов — судьба культур. — Ташкент, 1982.
10. Пахратдинов, А. Бердақ шайырдың дәстанлық шығармалары. — Нөкис: Қарақалпақстан, 1987. — 132 б.
11. Утамбетова, А. Бердақтың «Шежире» дәстанында фольклорлық хәм реалистлик сүүретлеў усылларының синтези. — Нөкис: Қарақалпақстан, 2012.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934